

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM
VAZIRLIGI**

**A.QODIRIY NOMLI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Pedagogika – psixologiya fakul'teti

Pedagogika-psixologiya kafedrası

**PSIXOLOGIK XIZMAT FANIDAN
fanidan**

Peфepat

**MAVZU: Milliy mafkura va ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish
masalalari**

Bajardi: Bosimova Barchinoy
Rahbar: M.Qodirova

J I Z Z A X – 2014

I BOB. TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA MA'NAVIY VA MODDIY HAYOT UYG'UNLIGI

1.1. Milliy mafkura va ta'lim-tarbiya jarayonlari

Ma'naviy olam, ma'naviy borliq jamiyat va inson hayotining eng muhim jihatlaridan bo'lib hisoblanadi. U jamiyat taraqqiyotining barcha jabhalarida sodir bo'layotgan jarayonlar bilan uzviy aloqadorlikdadir. Jamiyat hayotining undan holi bo'lgan bironbir sohasi yo'q, bo'lishi ham mumkin emas. Jamiyatning ma'naviy hayoti qamrovi nihoyatda keng, mazmunan chuqur, shaklan xilma-xildir. Ma'naviy hayot inson aql-idroki va tafakkurining barcha maxsullarini jamiyat tomonidan to'plangan madaniy boyliklarida ifodalangan yutuqlarini, ijtimoiy ong shakllarini, kishilarning g'oyalarini, qarashlari, tasavvurlari, dunyoqarashi, odob-ahloqi, butun ma'naviy olamni qamrab oladi.

Insonlar tomonidan uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratilgan va rivojlantirilgan ma'naviy boyliklar, ijtimoiy ongning ilmiy, badiiy, huquqiy, diniy, axloqiy, falsafiy va boshqa shakllari, dunyoqarashning butun sohasini ham, badiiy asarlar, estetik qarashlarni ham jamiyat ma'naviy hayotiga kiritish mumkin.

Jamiyat ma'naviy hayoti, boshqacha aytganda, umuman ma'naviy ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Ma'naviy ishlab chiqarish jarayonida inson tafakkuri mevalari - g'oyalar, qarashlar, nazariyalar, ta'limotlar, konsepsiyalar, ta'lim-tarbiya tizimlari, diniy va badiiy obrazlar, ijtimoiy me'yor va qonun-qoidalar, yasok va tuzuklar, pandu nasihatlar, yo'l-yo'riqlar, rejalar, dasturlar yaratiladi. Ma'naviy ishlab chiqarish mahsullari, qo'lyozmalar, kitoblar, toshlardagi bitiklar, yozuvlar, rasmlar, chizmalar, singari va boshqa shakllarda ham namoyon bo'ladi.

Maorif, ilm-fan, adabiyot, san'at, kino va teatr tomoshalari, tasviriy san'at asarlari, maqollar, masallar, rivoyatlar, ertaklar, dostonlar, qo'shiq, musiqa, aruz va baytlar, xalq ijodiyotining jamiki durdonalari inson ma'naviy faoliyatining muhim elementlari, ko'rinishlari, tarkibiy qismlaridir. Kutubxona va muzeylar, radio va televideniye, matbuot, umuman, ommaviy axborot vositalari haqida ham shu fikrni aytish mumkin.

Jamiyat taraqqiyoti iqtisodiyot bilan ma'naviyatning biri-biri bilan bog'langan, biri ikkinchisiz voqye bo'lmaydigan murakkab jarayondir. Iqtisodiyot va ma'naviyat har qanday jamiyat hayoti va taraqqiyotining o'zaro ajralmas ikki sohasi, muhim tomonlaridir. Ular biri-birini inkor etmaydi, balki bir-birini quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib, rivojlanib va takomillashib boradi. «Agar iqtisodiy o'sish, taraqqiyot- jamiyatimizning tanasi bo'lsa, ma'naviyat-ma'rifat va siyosiy ong yetukligi uning ruhi, aqli jonidir»¹.

Iqtisodiyot bilan ma'naviy hayotning uzviy birligi, bnri ikkinchisiz mavjud emasligi, ularning jamiyat taraqqiyotidagi bir-biridan kam bo'lmagan ahamiyati mustaqil O'zbekiston Respublikasi uchun bevosita taalluqlidir.

¹ И. К а р и м о в. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-том. -Т.: Ўзбекистон, 1996. –Б. 261.

Mustaqil O'zbekiston bozor munosabatlariga iqtisodiyot bilan ma'naviyatning uzviy birligi asosida bosqichma-bosqich o'tayotganligi tarixiy haqiqatdir.

Bozor munosabatlariga o'tish jamiyat ma'naviy hayoti yuksak darajada bo'lishini, insonning g'oyaviy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma'naviy, ma'rifiy yetukligini taqozo etadigan tarixiy zaruriyatdir. Xalqning ma'naviy-ruhiy yetukligi bozor iqtisodiyotiga o'tishni ta'minlashning eng muhim omillaridan biridir.

Jamiyat moddiy hayotining ma'naviy hayotga ko'rsatadigan ta'siri, albatta katta. Ana shunday falsafiy qoidaga asoslanib jamiyat ma'naviy hayotining iqtisodiyotga, siyosatga, ijtimoiy munosabatlarga, umuman aytganda, jamiyat taraqqiyotiga bo'lgan kuchli ta'sirini aslo inkor etib bo'lmaydi.

Jamiyat hayotining ma'naviy asoslariga, ma'naviy boyliklariga asoslanmasdan va to'g'ri yondashmasdan turib iqtisodiy muammolarni hal etish amri maholdir. Qachonki ma'naviy boyliklardan jamiyat iqtisodiy rivojlantirishining obyektiv qonuniyatlarini hisobga olgan holda foydalanilsa, shundagina iqtisodiyotda samarali natijalarga erishishni ta'minlash mumkin.

Jahon tarixiy tajribasining ko'rsatishicha, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy taraqqiyotning tanho bir o'zigagina asoslangan jamiyat va davlatning tag zamini mo'rt bo'ladi. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyot madaniy-ma'naviy, ruhiy, ma'rifiy kamolot, o'sish-o'zgarish va rivojlanish bilanchambarchas bog'langandagina jamiyat, davlat, xalq va millat taraqqiyoti behad tezlashadi va yuksak samaralar beradi. Ijtimoiy hayotda tub tarixiy o'zgarishlar ana shunday sharoitlarda sodir bo'ladi. Jahondagi barcha ilg'or mamlakatlar shu boisdan ham tarixiy taraqqiyotning burilish davrlarida jamiyat ma'naviy hayoti rivojlanishi masalalariga katta e'tibor berganlar, madaniy saviyasi darajasini, ma'naviyati va madaniyatini ko'tarish zarur deb hisoblaganlar.

Jamiyat ma'naviy hayotining ijtimoiy taraqqiyot uchun ahamiyati shunchalik kattaki, uni hych qachon ikkinchi o'ringa surib qo'yib, bo'lmaydi. Iqtisodiy muammolar hal qilinib bo'lingandan keyin ma'naviyat masalasiga o'tiladi, deb o'ylash tamomila xatodir.

Iqtisodiy va siyosiy omillar singari ma'naviyat va ma'rifat ham jamiyat taraqqiyotini tezlashtirish va jadallashtirishning eng muhim sharoitlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Dunyodagi har bir millat va xalqning katta-kichikligidan qat'i nazar ma'naviy boyliklarga ehtiyoj sezgan va sezayotganligi tarixiy haqiqatdir.

Ma'naviy hayot yuksak bo'lmagan joyda moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish va iste'mol qilish madaniyati yuqori darajada bo'lmaydi. Dunyoga kelish va yashashdan maqsad qorin to'ydirib boylik ortirish, deb hisoblagan odam to'q, farovon, madaniy turmush kechirish me'yorlarini ham bilmaydi. Ma'naviyati yetuk insonlar kelajakni oldindan ko'rishga, qiyinchiliklarni yengishga, og'ir sharoitda ham yuksak maqsadlarni oldiga qo'yib, ularga ishonch-ixlos, iymon-e'tiqod bilan intilishga qodir bo'ladi.

Madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat odamlarni jamiyat talablari, qonun-qoidalar, odob-axloq me'yorlari asosida yashash va faoliyat ko'rsatishga, insonparvarlik, halollik, ijtimoiy adolatlilik, umuminsoniylik g'oyalari va tamoyillariga astoydil sodiq bo'lishga yo'naltiradi.

Odamlarning madaniy-ma'naviy saviyasi basharti past bo'lsa, uning salbiy oqibatlari iqtisodiyotda ham, ijtimoiy sohalarda ham, oilada ham, jamoatda ham, kishilarning o'zaro munosabatlari, odob-axloqi, turmush tarzlari va yurish-turishlarida ham, albatta seziladi. Iymon-e'tiqod sustlashgan, ma'naviy omillar zaiflasha boshlagan joyda odamlardan mehr-oqibat ko'tarila boshlaydi, haqiqiy insoniy munosabatlarga putur yetadi.

Ma'naviy boyliklardan oqilona, har tomonlama foydalanishning ahamiyati va bebaholigi uning turli xalqlar va mamlakatlar kishilarini qon-qarindosh, hamkor-hamjihat qilishda, ularning taqdirini o'zaro hurmat asosida yaqinlashtirishda ham yaqqol ko'rinadi. U inson hayotini go'zallashtiradi, turmushiga mazmun va mohiyatni bag'ishlaydi. Ma'naviy hayotda boy bo'lgan insonning qalbi pok va beg'ubor bo'ladi.

Jahon falsafasining tarkibiy qismi bo'lgan Sharq falsafasida insonda ikki karama-qarshi asos, modda (jism) va ruh mavjudligi alohida, ta'kidlanadi. Ana shu ikki asos inson vujudida mutanosib bo'lishi, biri ustuvorlik qilib, boshqasi orqasida ketmasligi kerak. Agar shu tartib buzilib, moddiylik ruhdan ustun kelib, ruh jism quliga aylanib, unga xizmat qilgudek bo'lsa, unda inson amaliy faoliyatida salbiy holatlar avj olib, ijobiy fazilatlar keyinga surilib tashlanadi. Aksincha, ruhiy-ma'naviy tomonlari taraqqiy etgan insonlarda aqlu zakovat, insofu diyonat, odobu axloq, ilmu ma'rifat ustun bo'lib, mol-dunyoga berilish nuqsonlaridan holi bo'ladi. Ruhiiy, ma'naviy jihat insonni inson qiladigan, uning hayotini go'zallashtiradigan fazilatlardandir.

Ma'nau, ruhan, axloqan kamol topgan inson nafsining quliga aylanib qolmaydi, ta'magarlik qilmaydi, yeb-ichishni, boylik to'plashni, hayotining mazmunini yashashdan maqsad deb tushunmaydi. Bunday inson olam sir-asrorlaridan xabardor bo'ladi, o'zi va o'zgalarni hurmat qiladi, qadrlaydi, o'zligini anglab yetadi, milliy tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, qadriyatlarini yuksak darajada e'zozlaydi, ular bilan faxrlanadi. Ruhiiy-ma'naviy boylik behad go'zallashtiradi va ayni paytda uni yomon hislatlardan qutqaradi, noto'g'ri yo'ldan qaytarib, to'g'ri yo'lga boshlaydi, adolat uchun kurashish yo'lida kamarbasta bo'lishga da'vat etadi.

Inson vujudi, amaliy faoliyatida ruhiy, ma'naviy tomonlar keyinga surib tashlanib, bema'ni hislar va nafsga berilish g'oliblik qilsa, unday inson nafs tuzog'iga ilinadi. Ma'naviy fazilatlardan biri — halol, pokiza yashash, birovlarining haqiga zarracha bo'lsada xiyonat qilmaslikdir. «Turkiston mulkinipg shayhul mashoyixi» Xoja Ahmad Yassaviy e'tiqodicha, «haq yo'lga kirib bo'lmas pok bo'lmasdan», halol bilan haromni farqlash, faqat o'z mehnati evaziga tirikchilik qilish, harom-harishdan jirkanish, haromxo'rlikni eng katta gunohi azim va axloqsizlik, deb hisoblash yassaviylikning muhim g'oyalardan bo'lib hisoblanadi. Xoja Ahmad Yassaviy ta'biricha. «nafs yo'lga kirgan kishi rasvo bo'lur, yo'ldan ozib, toyib, to'zib, gumroh bo'lur, yotsa, tursa shayton bilan hamroh bo'lur...».

Odanning qornini oziq-ovqat bilan, ust-boshini kiyiladigan keyim-kechak va poyafzal bilan ta'minlash mumkinu, ammo nafsga erk bergan ochofat kishining ko'zini mol-dunyoga hych ham to'ydirib bo'lmaydi. Hadisda aytilishicha,

«Insonga bir vodiy to'la molu dunyo berilsa, u ikkinchi vodiyni ham berilishini xohlaydi. Ikkinchisidan keyin uchinchisini va hokazo, unning nafsi to'ymaydi. Insonning ko'zini faqat tuproq (qabr tuprog'i) to'ydiradi... Bandaning molu dunyoga qo'ygan xirsi ikki och bo'ri qo'y podasiga qilgan tajovuzidan ko'ra zararliroqdir. Zero, bu bilan o'z diniy iymoniga putur yetkazadi»².

Insonning ma'naviy-axloqiy jihatdan bezaydigan ajoyib xalqimiz ma'naviyati, ma'naviy hayoti shakllanishi va rivojlanishi tarixiga nazar solsak, uning zaminlari nihoyatda mustahkam ekanligiga ishonch hosil qilamiz. U o'zining chuqur ildiziga ega. Uning ildizlari asrlar qa'riga borib taqaladi. Dunyodagi qadimiy sivilizasyadardan biri bizning mintaqamizda, Turoni zaminda paydo bo'lgan.

«Hozirgi O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz,-deydi I.A. Karimov,- nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizasiyasidan biri bo'lganini butun jahon tan olmokda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha ko'rku fayzni, mahobatni yo'qotmagan asori-atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik san'ati yuksak bo'lganidan dalolat beradi. Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi tosh-yozuvlar, bitiklardan tortib bugun kutubxonalarimiz javonida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi. Shuning uchun ham bu borada jahonning sanoqli mamlakatlarigina biz bilan bellasha olishi mumkin, deb dadil ayta olaman»³.

O'zbekistonda ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatga, inson aql-zakovatining noyob va go'zal boyliglariga bundan bir necha asrlar ilgari asos solingan. Mamlakatimiz fani, san'ati, madaniyati juda qadim zamonlardan yuksala boshlaganini, uning ildizlari, zaminlari chuqur, qudratli va qadimiyligini yaxshi bilamiz. Ma'naviy boylıklar, ilm-fan, aql-zakovat asrlar davomida o'zbek millatiga, butun insoniyatga tabiat sir-asrorlarini o'rganishda, tibbiyot, falsafa, huquqshunoslik, ilohiyot, adabiyotshunoslikda xizmat qilib kelmoqda. Ilmlar xazinasini ochgan buyuk ajdodlarmizning nomlarini butun dunyo biladi. Bu bizlar uchun cheksiz faxr-iftixordir. «Toki bizning qonimizda, bizning suyagimizda, bizning naslimizda qanday ulug' madaniyat bo'lganini, biz nechog'lik buyuk madaniyat vorislari ekanimizni do'stlarimiz ham bilishsin. Bu maqsadni amalga

² Туленов Ж.Т. Маънавият ва ижтимоий тараққиёт. – Т.: Мехнат, 2000. – Б.9-10.

³И. Каримов. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. - Т.: «Шарк» нашриёт-матбаа концерни Бош тахририяти, 1998. –Б. 3-4.

oshirishni shaxsan o'zim ham qarz, ham farz deb hisoblayman»⁴,- deydi Prezident.

O'zbekiston xalqi o'zining peshona teri, tafakkur quvvati, qobiliyat va iste'dodi bilan o'ziga xos fan va madaniyatni, ahloq va falsafani yaratdi, tarix ijodkori sifatida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyotga keng yo'l ochdi. Uning badiiy adabiyot, xalq og'zaki va yozma ijodiyoti sohasidagi xizmatlari ham buyuk.

Eng muhim aloqa vositasi bo'lgan tilning ham asoschisi xalqdir. Tilsiz na jamiyat, na ilm-fan, na madaniyat va ma'naviyat, na taraqqiyot bo'ladi. Til ixtiro qilinmaydi. Uni xalq uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratadi va rivojlantiradi. Til xalq bilan, xalq esa til bilan tirik.

Shuning uchun ham ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash, xalqning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish O'zbekiston davlat mustaqilligini barqarorlashtirish uchun eng muhim vazifadir.

1.2. Mustaqillik mafkurasi va yoshlar ta'lim-tarbiyasi

Mustaqil O'zbekistonning taraqqiyoti shu yurtda yashovchi har bir shaxsning, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy kamolotiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Chunki, ma'naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hyech qachon baxt-saodat bo'lmaydi. Ilg'or millat va rivojlangan davlat bo'lishning zaruriy shartlaridan biri ham boy va sermazmun ma'naviyatga ega bo'lishdir. Faqat moddiy jihatdan boy hamda ilg'or bo'lish jamiyat norasoligining xolis ko'rsatkichidir. Shu bois, Prezident Islom Karimov tomonidan istiqlolning dastlabki yillaridanoq **«Ma'naviy boylik – moddiy boylikdan ming bor ustun»**⁵ degan purma'no g'oya ilgari surilib, xalqimizning, ayniqsa, farzandlarimizning ma'naviy darajasini yanada yuksaltirish kelajagi buyuk O'zbekistonni barpo etishdagi eng dolzarb masalalardan biri ekanligiga katta ahamiyat qaratib kelinmoqda. Ayni zamonda, davlatimiz rahbari o'zining ko'plab nutq va ma'ruzalarida, asarlarida ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga azmu qaror qilgan xalqimizning boy merosi, bebaho qadriyatlari, ezgu niyat, orzu-umidlariga, shuningdek, umumbashariy qadriyatlarga asoslangan milliy mafkurani shakllantirish, ommalashtirish, kishilar ongiga chuqur singdirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratmoqda.

Mamlakatimizning mustaqillik boshlab bergan o'ziga xos va o'ziga mos taraqqiyoti yo'lidan buyuk kelajak sari tezkorlik bilan ilgarilab borishi uchun xalq madaniyati, ma'naviyati, ma'rifatini doimiy ravishda yuksaltirib bormoq, ma'naviy rivojlantirishga alohida e'tibor bermoq maqsadga muvofiqdir, chunki taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi.

Ma'naviyat insonning hayot tajribasi, mehnati, bilimi, ahloq va odobi, avlodlar tajribasi asosida shakllanib boradi. Ma'naviyat insonning hayoti va faoliyatiga maqsad va yo'nalish beradi. Ma'naviyat insonning o'z xalqi

⁴ И. Каримов. Бунёдкорлик йўлидан 4-том. -Т.: Ўзбекистон, 1996. –Б.21.

⁵ Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан қураимиз. Асарлар. 7-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 1999. – Б.246.

tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqurroq bilish va tushunib yetishiga yordamlashadi. Inson ma'naviyatsiz yashay olmaydi. Ma'naviyat alohida bir inson uchungina emas, jamiki odamlar uchun ham, xalq, elat va millat uchun ham, jamiyat taraqqiyoti uchun ham o'ta zarur va muhimdir. Ma'naviyatsiz inson bo'lmaganidek, ma'naviy yetuk, ahloqan pok va mukammal insonlarsiz jamiyat va millat ham bo'lmaydi.

Inson ma'naviyati jamiyat, davlat va millat ma'naviyati bilan uzviy aloqadordir. Inson va jamiyat ma'naviyati mohiyat jihatidan yaqin bo'lib, bir-birini o'zaro boyitsa va to'ldirsa-da, lekin ular aynan teng emas. Inson ma'naviyati millat, davlat va jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismidir, xolos. Insonning ma'naviyati, shaxsning ma'naviy kamoloti jamiyatda mavjud bo'lgan ko'p qirrali munosabatlar, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy imkoniyat va shart-sharoitlar asosida shakllanadi va amalga oshadi. Millat va mamlakatning madaniy-ma'naviy taraqqiyoti inson ma'naviy kamolotiga asos bo'ladi.

Ma'naviyat insonga muayyan maqsad, kelajakka ishonch bilan borish uchun katta umid, kuch va qudrat baxsh etadi. Ma'naviyat insonning o'zligini anglab olishida unga yordam beradi. O'zligini anglagan insongina, o'zligini anglagan millatgina kuchli davlat, adolatli jamiyat barpo eta oladi. Milliy jihatdan o'zligini tanigan inson millatini, Vatanini, uning o'tmish tarixini, adabiyoti, san'ati va madaniyatini bilib oladi. O'zligini anglagan inson, o'zligini anglagan millat ulug' ajdodlarining aqlu zakovati va ularning hayotbaxsh meroslariga munosib bo'lishga harakat qiladi. Vatanini o'zgacha mehr bilan sevadi, u bilan cheksiz faxrlanadi, yurtim deb, elim deb yashaydi.

Inson ongi, odob-axloqi, ma'naviyati, dunyoqarashining shakllanishi talab-ehtiyojlarining qondirilishi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy munosabatlarga, ijtimoiy tuzum mohiyati va xarakteriga bevosita bog'liq. Jamiyat qanday bo'lsa, ijtimoiy munosabatlar majmui bo'lgan inson ham unga mos bo'ladi. Demak, insonning inson sifatida shakllanishi, o'zini namoyon qilishi, ma'naviy kamoloti, qobiliyati va iste'dodini ro'yoobga chiqarishi uchun jamiyat o'zining barcha jabhalarida insoniylashmog'i lozim.

Shunday qilib, insonning ichki ma'naviy, ruhiy dunyosi bir qator ko'zga ko'rinadigan, jamiyat tomonidan baholanadigan ko'pgina xislatlarida o'z aksini topadi, tashqarida namoyon bo'ladi. Agarda kishilarning ichki ma'naviy dunyosini bilib bo'lmaydigan bo'lsa, unda ma'naviy yetuk barkamol insonlarni tarbiyalash vazifasi jamiyatimizda dolzarb muammo bo'lib turmas edi.

Insonning ichki ruhiy, ma'naviy dunyosining namoyon bo'lish shakllarini bilish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Kishilarning ichki dunyosini bilmay turib, ularga ta'sir ko'rsatish amri maholdir. Aksincha, ularning ichki ma'naviy dunyosini bilib olish kishilarning dunyoqarashi, odob-axloqi, yurish-turishiga, mehnat qilishiga, psixologik holatlarni e'tiborga olgan holda tani sog'lig'iga ijobiy ta'sir ko'rsatib, elga, Vatanga sadoqatli, fidoyi insonlarni tarbiyalash imkoniyatini tug'diradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq yangi tarixiy sharoitlarda o'zgarib borayotgan jamiyatga munosib har tomonlama yetuk va barkamol kishilarni tarbiyalash kun tartibidagi dolzarb muammolardan biri sifatida

belgilandi. Bu o'z navbatida bir necha o'n yillar mobaynida xalqdan begonalashtirib kelingan ma'naviy mulk va ma'naviy merosni, sinfiy-partiyaviy mafkura tomonidan taqiqlangan madaniy boyliklarni unga qaytarish hamda qadriyatlarining yanada kamol topishi uchun keng imkoniyatlar ochish vazifasidan iborat edi. Bu muhim vazifani amalga oshirishda ta'lim-tarbiya tizimimizni zimmasiga ham ulkan mas'uliyat yuklangan bo'lib, bu borada ham muayyan ishlar amalga oshirildi. Ammo shuni alohida ta'kidlash lozimki, yoshlarni komil inson sifatida tarbiyalash bir kunlik ish emas, u doimiy izlanishni talab etuvchi mashaqqatli, ammo natijasi barchamizga huzur baxsh etuvchi zahmatli vazifadir.

II BOB. TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI BOSHQARISHDA MILLIY MAFKURANING O'RNINI VA TA'SIRI

2.1. Ma'naviy tiklanish va yuksalish davrida ta'lim-tarbiya masalalari

Insoniyat tomonidan o'z ijtimoiy hayotida doimo intilib kelgan eng buyuk qadriyat-mustaqillik, erk, ozodlik hisoblanadi. "Mustaqillik" (arabchadan-tobe emaslik; ixtiyori o'zidalik, qaram emaslik) – erkin va ozod ravishda, boshqalarning rahbarligisiz ish yurita bilish. Mustaqillik – o'zaro hurmat, bir-birlarini qadrlash, milliy va bashariy qadriyatlarga tayanib yashash, fikrlash, o'z hayotini o'zi tashkil etish imkoniyati va amaliyotini bildiradi ⁶.

Shuningdek, mustaqillik tushunchasi "istiqlol" so'zi bilan hamohanglikda ham iste'mol qilinadi. "Istiqlol" (arabcha-ko'tarilish, qaddini rostdash, o'sish, yuqori joyga erishish) – har bir inson, jamoa, davlat, millatning rivojlanishi uchun zarur erkinlik sharoiti. O'zbekiston 1991 yilning 31 avgustida o'z istiqololini qo'lga kiritib, jahon maydoniga chiqib, qaddini rostladi. Istiqlolning barcha ma'nolarini amalga oshirib bo'lgandan keyingina mustaqillikka to'la erishish mumkin. "Mustaqillik" tushunchasi ham "istiqlol" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, uning barcha ma'nolarining bajarilganligini bildiradigan holatdir. "Istiqlol" ko'pincha siyosiy mustaqillik ma'nosida qo'llaniladi. Istiqlolga erishgan ko'pgina davlatlar iqtisodiy jihatdan qaramlikdan tamoman qutila olmagan bo'lishi mumkin. "Istiqlol" so'zi "mustaqillik" so'ziga nisbatan birlamchidir ⁷.

Mustaqillik o'zbek xalqi uchun muqaddas ne'mat. Shu asnoda mamlakatimizning istiqol uchun kurashlar tarixini o'rganish juda muhim. Mamlakat Prezidenti "Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati" nomli asarida, shu ma'noda "o'zbek millati azaldan o'z fikr-zikri, o'z istiqololi uchun kurashib yashagan. Bunga moziy guvoh. Millatimiz tarixi haqidagi haqiqat, yurtimizning fidoiy, o'z yo'lidan, maslagidan, so'zidan qaytmaydigan farzandlariga ochilishi lozim. Bilishimiz shart bo'lgan tarix sahifalarini qunt bilan varaqlash hammamiz uchun ham qarz, ham farz" ⁸.

Darhaqiqat, mustaqillik biz uchun muqaddas ne'mat va tuyg'u. Gap shundaki, uch ming yillik buyuk davlatchilik tariximiz davomida mamlakatimiz hududiga ko'plab bosqinchi-istilochilar kirib keldilar. Xalqimizni qul qilishga, moddiy boyliklarni yo'q qilishga urindilar. Xususan, axmoniyalar 200 yil, grek-makedonlar 180 yil, arablar 200 yil, mo'g'il bosqinchilari 150 yil, chor Rossiyasi va kommunistik mafkura 130 yil (jami 860 yil) davomida mustamlakachilik siyosatini olib bordi. Natijada xalqimiz, uning buyuk mutafakkirlari tomonidan yaratilgan moddiy-ma'naviy boyliklar vayron qilindi, mamlakatimizning rivojlanishi uzoq yillarga ortga qaytarildi.

Ammo mustaqillik g'oyasi, erk, ozodlik uchun kurash hyech qachon to'xtamadi. Birgina 1899-1916 yillarda rusiya mustamlakachiligiga qarshi 4412 marta xalq g'alayonlari sodir etildi. Mustaqillik uchun kurash ayniqsa sovet

⁶ Мустақиллик. Изоҳли илмий-оммабоп луғат.-Тошкент, 2006.-274-бет.

⁷ Мустақиллик. Изоҳли илмий-оммабоп луғат.-Тошкент, 2006.-137-бет.

⁸ Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин.-Тошкент, 1996, 2-жилд.-92-бет.

mustabid tizimi davrida avj oldi. “Bosmachilik harakati” deb nom olgan, aslida “Milliy-ozodlik”, “Qarshilik ko’rsatish”, “Istiqlolchilik” xarakati tufayli 1918-1920 yillarda mamlakatimiz hududida 114 qo’rboshi boshliq istiqolchilik harakati yuz berdi.

“Qizil terror” o’sha davrda qanchalik ommaviy tus olganligi haqida quyidagi ma’lumotlar dalolat beradi: 1936 yilning oxiridan 1940 yilgacha bo’lgan davrda respublika bo’yicha yozuvchilar, jurnalistlar, davlat, jamiyat arboblari va hakoazolardan 5758 kishi qamoqqa olingan, ulardan 4811 nafari otib tashlangan⁹. O’ylab chiqilgan soxta ayblovlar bo’yicha O’zbekistonda 1937-1939 yillarda hammasi bo’lib 41 mingdan ortiq kishi jazolangan, 6920 kishi esa otib tashlangan¹⁰.

Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” nomli asarida 1937-1953 yillarda siyosiy qatag’onlar oqibatida O’zbekistonda 100 ming kishi qatag’on qilingani, ularning 13 ming nafari otib tashlanganigi ta’kidlanadi¹¹.

Bunday yo’qotishlar, shubhasiz, yagona g’oya-mustaqillik g’oyasi uchun sodir bo’ldi. Mustaqillik o’zbek xalqi uchun eng muqaddas tuyg’u ekanligini e’tiborga olgan holda Islom Karimov 1989 yil 23 iyunda O’zbekiston Kompartiyasi markaziy Komitetining Plenumida birinchi kotibi bo’lishi bilan o’z faoliyatining ustuvor yo’nalishi sifatida Mustaqillik yo’lini tanladi. Ta’bir joiz bo’lsa aytish kerakki, I.Karimovning mamlakat rahbari sifatidagi siyosiy konsepsiyasi xalqimizning asrlar davomidagi orzu – umidlariga hamohang edi.

Mustaqillikka erishish o’ta murakkab masala edi. Bir tomondan sobiq SSSR rahbariyati mavjud siyosiy tuzumni yo’q qilishdan manfaatdor emasdi, zero O’zbekistondan kuchli moddiy-iqtisodiy zamindan ajralish har qanday mustamlakachilikka zarba berardi. Boshqa tomondan, mamlakatimizning o’zida ham SSSR ning parchalanishidan hadikka tushuvchilar bor edi. Kimdir mavjud imtiyoz-u imkoniyatlardan ajralishdan qo’rqsa, kimdir sovet davrida shakllangan o’z turmush tarzi, soxta “madaniyat”, arosatdagi ma’naviy-mafkuraviy “bisot” dan begona bo’lishni istamasdi.

I.Karimov rahbarligidagi O’zbekiston siyosiy rahbariyati shunday murakkab sharoitda mamlakatda tom ma’noda mustaqillikni qo’lga kiritish uchun qadamba-qadam, sobitlik bilan faoliyat olib bordi. Ayniqsa bu borada olib borilgan jiddiy siyosiy, ma’naviy-mafkuraviy tadbirlar ichida quyidagilarga alohida e’tibor berish lozim. Boshqacha aytganda, quyidagi uch buyuk qadam O’zbekistonni mustaqillik sari tashlagan eng dastlabki, shu bilan birga zalvorli odimi edi:

1. 1989 yil 21 oktyabrda O’zbekiston Oliy Sovetining XI sessiyasida “O’zbekiston SSR ning davlat tili haqida” gi Qonuni qabul qilindi.

2. 1990 yil 24 martda XII chaqiriq O’zbekiston SSR Oliy Sovetining birinchi sessiyasida I.Karimov O’zbekiston SSR ning birinchi Prezidenti etib saylandi.

⁹. Узоков Х. Ўзбекистонда мустақиллик учун курашлар тарихи. 1900-1940 йиллар. Диссерт. автореф.-Тошкент, 1991.-40-бет.

¹⁰ “Правда Востока”, 1991, 15 сентябрь.

¹¹ Каримов И. Юксак маънавият-енгилмас куч.-Тошкент, 2008.-98-бет.

3. 1990 yil 20 iyunda “O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining ikkinchi sessiyasida “Mustaqillik Deklarasiyasi” qabul qilindi. (6-slayd)

1991 yil 31 avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Bayonot O‘zbekiston hukumatining siyosiy yo‘lini to‘la qonunlashtirdi.

2.2. Ta‘lim-tarbiya jarayonida milliy g‘oyaning zarurligi

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng fuqarolarni yangi yo‘ldan boshlab borish, ularning qarashlari va orzu-umidlarini, maqsadlarini bir yo‘nalishga burib, kuchlarni uyg‘unlashtirish uchun yagona g‘oyaviy qurol zarur edi. Shu bilan birga istiqlolning dastlabki yillarida uzoq davr hukmronlik qilgan kommunistik mafkuradan voz kechish, undan xalos bo‘lish lozim edi.

Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq Yurtboshimiz xalqimiz ongiga mustaqillik g‘oyalarini singdirish, fuqarolarda yangicha tafakkur va dunyoqarashni singdirishga alohida e‘tibor bera boshladi. 1992 yil 2 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining X-sessiyasida I.Karimov shunday degan edi: “Bugungi kunda xalqni yakdil qiladigan ishlar va g‘oyalar oz emas. Ularning ichida eng ulug‘i, eng olijanobi-O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligini ta‘minlash. Ana shu maqsad, ana shu g‘oya atrofida birlashsak, aslo xor bo‘lmaymiz”¹².

90-yillarning boshlarida mamlakatda vujudga kelgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy qiyinchiliklar ma‘lum muddat xalqimiz ruhiyatiga salbiy ta‘sir qildi. Mamlakatimiz siyosiy rahbariyati oldida bir tomondan o‘sha qiyinchiliklarni bartaraf etish, boshqa tomondan kishilar ruhiyatini ko‘tarish, mavjud bo‘hronlarni yo‘qotish vazifasi turardi. 1993 yilning 23 aprelida I.Karimov bir guruh adiblar bilan uchrashdi. 1993 yil 6 mayda Oliy Kengashning XII – sessiyasida esa mafkurasiz, aniq yo‘nalishga ega bo‘lgan g‘oyalarsiz taraqqiyot bo‘lmasligi alohida ta‘kidlandi va istiqlool, milliy istiqlool mafkurasini yaratish vazifasi qo‘yildi.

Xo‘sh, mafkurasizlik nimaga olib keladi:

Birinchidan, e‘tiqodsizlikka olib keladi. E‘tiqodsizlik esa har kimning o‘zicha yashashiga, ko‘ngil tusaganicha kun ko‘rishga, xayoliga kelgan ish bilan shug‘ullanishga olib keladi. Bu yakka-yakka shaxslarning hatti-harakatidan butun jamiyat ma‘naviy-ruhiy qiyofasining qay tarzda shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Ikkinchidan, mafkurasizlik odamlar ongida manqurtlik, qalbida, fe‘l-atvorida andishasizlik va nihoyat o‘zligini anglamaslik xislatlarini chuqurlashtiradi. Jamiyatda esa parokandalikni, beqarorlikni keltirib chiqaradi.

Boshqacha qilib aytganda, ya‘ni mafkuraning asl mazmun - mohiyati – yangicha tafakkurga, e‘tiqodga ega, erkin fikrlaydigan, siyosiy-huquqiy savodxonligi yuqori, ma‘naviy jihatdan baquvvat, sog‘lom, mutelik, jur‘atsizlik tuyg‘usidan mutlaqo xoli, mustaqil insonni tarbiyalashdir. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagini ta‘kidlash mumkin: milliy ong ta‘sirida milliy g‘oyalar yaraladi. Ushbu g‘oyalar asosida milliy mafkuara shakllanadi.

¹² Каримов И. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. -Тошкент, 1996.-15-бет.

Mamlakatimizda milliy g'oya va milliy mafkuraning shakllanishi puxta o'ylab chiqilgan reja asosida, ilmiy asoslangan tarzda amalga oshirildi. 2000 yilda "Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" risolasi e'lon qilindi. Unda insoniyat tarixi g'oyalari tarixidan iboratligi ta'kidlangan holda "**G'oya-inson tafakkuri mahsuli, milliy g'oya esa millat tafakkuri mahsulidir. Milliy g'oya – inson va jamiyat hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuidir**", deb qayd etildi. **Mafkura** esa muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyat ehtiyojlari, maqsad-muddaolari, manfaatlari, orzu-intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassam etadigan g'oyalari tizimidir.¹³ Ta'kidlash lozimki, milliy g'oya mustaqillik g'oyasi bilan hamohang. Xo'sh mustaqillik g'oyasi nima?

Mustaqillik g'oyasi – mustamlakachilik asoratida bo'lgan millat va xalqlarning, ularga mansub bo'lgan ilg'or kishilarni ozodlikka, o'z erkini qo'lga kiritishga undaydigan g'oya. Ana shu g'oya asosida ular ezgulik va ozodlik uchun kurashga o'tlanadilar, shu yo'lda jon fido qiladilar.

Mustaqillik mafkurasi esa jamiyat a'zolarining, ijtimoiy guruhlari, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, millatlar, elatlar, ommaviy harakatlar, diniy tashkilotlar, boshqa ijtimoiy subyektlarning umumiy manfaat va muddaolarini o'zida aks ettiruvchi va mujassamlashtiruvchi, ularning hatti-harakatlarini, faoliyatini, fikr-zikrini yagona bir maqsadga – mustaqillikka erishish holida uni mustahkamlashga yo'naltiruvchi g'oyalari majmuidir.

Mustaqillik g'oyasi va mustaqillik mafkurasining uyg'unligi pirovard natijada mamlakatimizda ijtimoiy taraqqiyotga, demokratik, huquqiy, insonparvar jamiyat barpo etishga imkon yaratdi.

Shu bilan birga muhim metodologik masalalardan yana biri – milliy istiqloq mafkurasining bosh g'oyasini aniqlash masalasidir. Shu ma'noda ta'kidlash lozimki, O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi – Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Ayni paytda milliy istiqloq mafkurasining asosiy g'oyalari mavjud bo'lib, ular 7 tadan iborat: Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik (tolerantlik).

Milliy mafkuramizning bosh g'oyasi va asosiy g'oyalari mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha 136 millat, elat vakillariga tegishli. Ushbu g'oyalari biror-bir millatning maqsad –muddaolariga, manfaatlari zid emas, aksincha, umumiy yaxlitlikka imkon beradi.

2.3. Milliy mafkura va ma'naviy taraqqiyot ta'lim-tarbiya asosi sifatida

Mamlakatimizda mustaqillikning ilk kunlaridanoq rivojlanishning faqat iqtisodiy jihatlarigagina emas, shu bilan ma'naviy omillariga ham e'tibor berish vazifasi ko'ndalang bo'lib turardi. Buning qator sabablari bor edi. Eng avvalo xalqimiz ongidan sovet mustabid tizimi davrida shakllangan "sovet madaniyati" tushunchasini chiqarib tashlash lozim edi.

¹³ Миллий истиклол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар.-Тошкент, 2000.- 9-бет.

O'zbekiston ma'naviy hayotiga 20-yillar birinchi yarmida bolsheviklar rahbari Lenin tomonidan ishlab chiqilgan "Madaniy inqilob" siyosati, ayniqsa, salbiy ta'sir ko'rsatdi. "Madaniyat" so'ziga "inqilob" so'zining qo'shilishining o'zi maqsadning xatoligidan dalolat berardi, zero "inqilob"- "revolyusiya" ko'pincha tag-tugi bilan ag'darish, ur-surni anglatardi. "Madaniy inqilob" siyosati Turkiston xalqlariga "yangi madaniyat" ni singdirish va xalqning qadimiy madaniyatidan uning asl mohiyati bo'lgan milliylikni chiqarib tashlashga qaratilgan edi. Mazkur siyosat zaminida o'sha davrda paydo bo'lgan madaniyatdagi "proletkult" (proletar madaniyati) yo'nalishi yotar edi. Bu yo'nalish 1917 yil oktyabr to'ntarishi arafasida Peterburgda tashkil topgan bo'lib, uning "g'oyalari" O'zbekistonga ham yetib kelgan edi. "Proletar madaniyati" tarafdorlari (ular asosan yevropaliklar edi) 20 – yillar boshlaridan "Madaniy nigilizm" siyosatini yurgazib, Turkistonda oktyabr to'ntarishigacha yaratilgan barcha milliy ma'naviy boylukni "feodal madaniyati", deb e'lon qildi. Bu, shubhasiz, bolsheviklarning "Madaniy inqilob" siyosatiga mos tushar edi.

O'tgan asrning 20-yillari oxirida Stalin tomonidan bir shior o'rta tashlandi. Bu-"sozializm rivojlanib borgani sari sinfiy kurash kuchayib boradi", deganini anglatardi. Aslida bu ishlarning tag-zamini kommunistik mafkura zug'umlarini kuchaytirish, milliy o'zlikni anglash jarayonini bostirishdan iborat edi. Natijada "sinfiy kurashning kuchayishi" bahonasida barcha sohalarda, ayniqsa madaniyatda, milliy munosabatlarda "o'ziga xos" siyosat olib borildi. Yanayam aniqroq aytiladigan bo'lsa, sobiq sovet hukumati tomonidan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi mustahkamlana boshlandi, kuchli qatag'on siyosati yoki "Qizil terror" siyosati yuritildi.

Ushbu "qizil terror" asosan ziyolilar, olimlar, shoir, yozuvchilarga qaratilgan edi. Chunki, aynan shular millatni uyg'otishi, ularda milliy o'zlikni anglash jarayonini kuchaytirish mumkin edi. Mustabid sovet davlati sobiq ittifoqqa qo'shib olingan barcha millat va milliy respublikalarning iqtisodiy va madaniy tengsizligini "ushlab turish", ularni kamsitish, ittifoq tarkibida majburan ushlab turish, ularga ishonmaslik, nazorat qilib turish siyosatini olib bordi. Yuqoridagi fikrimizga dalil sifatida sovet davlatining o'ziga qaram bo'lgan hududlarda qat'iy amal qilishi lozim bo'lgan yo'riqnoma (Moskva, 06, 1947; prikaz NK (003) 47) sini keltirish mumkin. 45 moddadan iborat ushbu yo'riqnomaning asosiy mohiyati sobiq ittifoqdosh respublikalarni qattiqqo'llik bilan "ushlab turish", har qanday milliylikni cheklash, lozim bo'lsa siyosiy qatag'onliklardan foydalanishdan iborat edi. Masalan, 26-moddada mahalliy aholi orasidan yetishgan rahbarlarning ommaviy chiqishlarida milliy bo'yoq faqat shaklan berilishi lozim, ammo u millatning o'sishi, birlashuviga xizmat qilmasligi kerakligi aytilsa, 34-moddada diniy ta'lim ishlarini, hatto ko'mish marosimlarini ham kuzatib, tekshirib borish darkorligi, 40-moddada esa siyosiy raqiblarning hammasi qamalgan bo'lishi kerakligi qayd etiladi.¹⁴

Mazkur holat sovet davrida milliy madaniyatlarga nisbatan davlatning rasmiy siyosatini shakllantirishga da'vat etardi. Natijada "shaklan milliy,

¹⁴ Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. -Тошкент, 2000. -510-бет.

mazmunan sosialistik, ruhan baynalmilal” madaniyatni barpo etish kun tartibiga qo’yildi. Unga asosan, sobiq kompartiya milliy respublikalarga o’z milliy madaniyatini “rivojlantirish” ga mone’lik qilmadi. Ammo “rivojlantirish” faqat shaklda aks etishi, mazmunan esa u sosialistik ruhni targ’ib etishi lozimligi talab etildi. Obrazli tarzda aytganda, o’zbekning o’z milliy kiyimlarida, milliy choponlarda, o’z ona tilida qo’shiq kuylashiga ruxsat berildi. Ammo ushbu qo’shiq mazmun-mohiyatini sosializm, kommunistik partiyaning “rahbarlik roli”, adolatli sosialistik jamiyat” tashkil etishi talab qilindi. Tabiiyki, bu narsa milliy respublikalar, jumladan O’zbekistonda haqli noroziliklarni keltirib chiqardi, kishilarda madaniyatdan “begonalashuv” boshlandi.

O’zbekiston madaniyatidagi transformasiya jarayonlari ayniqsa 1980 yillarning o’rtalaridan boshlangan “qayta qurish” davrida kuchaydi. Madaniyatga “sinfiylik”, “partiyaviylik”, “g’oyaviylik” asosida baho berildi. Madaniyat va san’at mafkuraviy zug’um ostiga olindi, milliy ehtiyoj, milliy manfaatlar inkor etildi, “Navro’z” bayramining “Navbahor” deb nomlanishi, islom dinining ma’rifiy-axloqiy jihatlariga nopisandlik bilan qarashning sababi ham shunda edi. Rasmiy hokimiyat qadriyatlar innovasiyasi tabiiy jarayon ekanligini qayd etdi. Ammo bu innovasion o’zgarishlarning milliy o’sishga, jiplashishga hyech qanday ijobiy ta’siri yo’q edi. O’zbekiston madaniyatining tom ma’noda rivojlanishiga mustaqillik tufayligina erishildi.

Alohida ta’kidlash lozimki, mustaqillik eng avvalo xalqimizning qo’lidagi siyosiy kishanlarni yechib tashladi. Ma’naviy-ma’rifiy sohadagi qullik, o’z madaniy siyosatini o’zi belgilashi huquqidan mahrum bo’lish esa qaysi xalq, millat bo’lishidan qat’iy nazar uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-mafkuraviy taraqqiyotiga to’siqdir. “Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar, -degan edi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov, -o’z yo’liga. Ularni hal etish mumkin. Ammo, ma’naviy islohotlar-qullik, mutelik iskanjasidan ozod bo’lish, qadni baland tutish, ota-bobolarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo’lish-bundan og’irroq va bundan sharafliroq vazifa yo’q bu dunyoda”¹⁵.

Ma’naviyatni rivojlantirish uchun eng avvalo uni yaxshi tasavvur etish lozim edi. “Ma’naviyat (arabcha “ma’naviyat”- ma’nolar majmui)- kishilarning faoliyati, huquqiy, estetik, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui. “Ma’naviyat” so’zining negizida arabcha “ma’ni” so’zi yotadi. “Ma’naviy” so’zi ma’niga aloqadorlikni bildirsa, “ma’naviyat” - “ma’naviy” so’zining ko’plikdagi shaklidir.”¹⁶

Umuman, ma’naviyat juda ma’nodor, serqirra tushuncha bo’lib, uning dunyoda yagona qabul qilingan, umume’tirof etilgan ta’rifi yo’q. Shu bilan birga, ruschada ma’naviyat “duxovnost” deb tarjima qilinsada, aslida “duxovnost” ko’proq “ruhoniylk” ni anglatadi. O’zbek tilida qabul qilingan “ma’naviyat” so’zi esa, inson barkamolligi, ma’naviy olami, dunyoqarashi, tafakkuri, ongi kabi tushunchalar bilan uyg’unlikda o’rganiladi.

¹⁵ Каримов И. Ўзбекистон: Миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1.-Тошкент, 1996.-202-бет.

¹⁶ Мустақиллик. Изоҳли илмий- оммабоп луғат.-Тошкент, 2006.-184-бет.

“Ma’naviyat” ga juda ko’plab ta’riflar berilgan bo’lsada, ularning ichida eng mukammali Prezident I.Karimov tomonidan “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida berilgan ta’rifdir. Unda “ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg’ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg’otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”.¹⁷ deyiladi. Ushbu ta’rifning mukammalligi unda inson kamolotining uni ruhi, ichki dunyosi, qalbi, irodasi, iymon-e’tiqodi, vijdoni, barcha qarashlari bilan uyg’unlikda ko’rilganligidir.

Kitobning o’zi ham bejizga ma’naviyat yengilmas kuch, deb ta’riflanmagan. Insonning qalbi, ruhi, irodasi, iymon-e’tiqodi, vijdoni sog’lom bo’lsagina uning **ma’naviy olami** to’g’risida fikrlash mumkin. Aslida ma’naviyat shaxs, millat, jamiyat bilan hamohanglikda ro’y berishi mumkin. Inson ma’naviyatini shakllantirishda uni barpo etilayotgan jamiyat mezonlari, mazmun-mohiyatiga uyg’unlashtirgandagina tom ma’nodagi mutanosiblikka erishish mumkin.

¹⁷ И.Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент, 2008.-19-бет.